

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING EKOLOGIK VA AXLOQIY QARASHLARI

Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich 1

Annotatsiya: Maqolada Sharq renessansi davridagi ekologik ma'naviy-axloqiy qarashlar va tabiatni muhofaza qilish madaniyatining shakllanishi, shu jumladan, Beruniy va Ibn Sino kabi buyuk olimlar hamda islom dini va tasavvuf falsafasining mazkur sohadagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, Alisher Navoiy ijodidagi ekologik axloqiy g'oyalar va insonning tabiatga munosabatiga oid badiiy-estetik qarashlar o'rganilgan. Maqolada tarixiy davrlarda "tabiat-jamiat-inson" tizimidagi munosabatlarni boshqarishda ma'naviy-axloqiy normalarning rolini, shuningdek, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini o'rganish muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Ekologik axloq, tabiatni muhofaza qilish madaniyati, Sharq renessansi, islom dini, tasavvuf, tabiat-jamiat-inson munosabatlari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ekologik ma'naviyat.

Sharq renessansi axloqiy qarashlari tarixida tabiatni muhofaza qilish madaniyati, insoniyatning taqdiri va sivilizatsiya kelajagi xavfsizligi asosi ekanligi genial tarzda ilg'ab olingan. Ayniqsa, tabiatshunoslik fanlari rivojlanishi bilan bu xulosalar tajribalar orqali isbotlangan va fatalistik g'oyalarga muqobil bo'lgan. Xususan, Beruniy va Ibn Sino asarlarida ekologik faoliyatni boshqaruvning ma'naviy-axloqiy asoslari o'z ifodasini topgan¹.

Tadqiqotni amalga oshirishda falsafaning ijtimoiy hodisalarni tadqiq qilishdagi: analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, umumlashtirish, konkretlashtirish kabi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirib, quyidagi xulosalarga kelsa bo'ladi:

Birinchi navbatda, ekologik axloq normalarining shakllanishi tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlarni boshqarish zaruriyatidan kelib chiqib, konkret tarixiy ekologik vaziyatga muvofiq ravishda ro'y beradi.

Ikkinchidan, "tabiat-jamiat-inson" tizimidagi munosabatlarni samarali boshqarish talabiga muvofiq keladigan muqobil ekologik axloqiy ta'limotlar umumiy axloq nazariyasining bir qismi hisoblanadi va jamiyatning taraqqiyot darajasiga moslashadi.

Uchinchidan, biosferadagi ekologik muvozanatni saqlash va umuman tabiatni muhofaza qilish madaniyati rivojlanishi, shuningdek, ekologik ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan ob'ektiv va sub'ektiv omillarning mavjud bo'lishini talab qiladi.

Ma'lumki, islom dinining hududimizga kirib kelishi va mavqeini mustahkamlab borishi bilan, uning "tabiat-jamiat-inson" tizimi munosabatlarini boshqarishga doir axloqiy ta'limoti ham shakllanib, rivojlanib borgan. Qur'on va hadislariga asoslangan

islomning teologik- falsafiy ta'limotlarida insonning tabiatga munosabatidagi ma'naviy-axloqiy jihatlari ilohiyotga e'tiqod nuqtai nazaridan yoritilgan. Xususan, tasavvuf falsafasida tabiatga, insonga munosabat Allohga e'tiqod bilan hamohangligi ko'zga tashlanadi.

Darhaqiqat, tasavvuf falsafasida insonning tabiatga munosabati komillik belgisi sifatida qabul qilingan. Ularning mazmun-mohiyatiga sinchiklab qaraydigan bo'lsak, umuman tasavvuf axloq nazariyasida, xususan "tabiat-jamiyat-inson" munosabatlarining ekologik axloqiga oid ta'limotlarida umuminsoniy (ma'lum ma'noda, dunyoviy) va islom dini ma'naviy-axloqiy qadriyatlari uyg'unlashuvi namoyon bo'lganini ko'ramiz.¹

Garchi, tasavvuf namoyondalarining ta'limotlarida fatalizm va pessimizm elementlari ustuvorligi kuzatilsa ham, buni ekologik axloq nazariyasidagi muqobil qarashlarning bir yo'nalishi sifatida e'tirof etish kerak.

Tasavvuf ta'limotining turli tariqatlarida tabiatga munosabat masalasida umumiylik namoyon bo'ladi. Chunki, undagi axloqqa doir ta'limotlarning tarixiy asosini Qur'on va hadislar tashkil qilib, ma'naviy mohiyatini, g'oyaviy mazmunini belgilab beradi. Ayniqsa, sufizmning falsafada asketizm g'oyalarini tabiatga munosabat kontekstida olib qaraydigan bo'lsak, uning ekologik mohiyati ko'zga yaqqol tashlanadi. Xususan, Muhammad al-G'azzoliy, Yusuf Hamadoni, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror va boshqalarning asarlarida ekologik axloq masalalari muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Insonning tabiatga ma'naviy-axloqiy munosabatlarini badiiy- estetik ifodalashning yorqin namunasi buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodida alohida o'rin tutadi. Kezi kelganda, uning ijodidagi ekologik qarashlar maxsus tadqiqotlar ob'ekti va predmeti bo'lishi zarurligini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Zero, O'zbekiston Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, "Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.

Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi²"

Alisher Navoiyning ma'naviy-axloqiy qarashlari «Xamsa»,

«Mahbub-ul qulub», «Zub-dat ut-tavorix», «Saddiy Iskandariy» va boshqa qator asarlaridagi g'oyalar tabiatga munosabatning axloqiy normalari va ma'naviy mezonlarini yuksak emotsional-ruhiy badiiy obrazlarda ifodalashda tengi yo'qdir.

Alisher Navoiyning ekologik axloqiy qarashlarida insonning tabiatga nisbatan ezguligi ham, yovuzligi ham, uning ijtimoiy mohiyatidan qidiriladi va gumanizmning yangi qirrasini namoyon bo'ladi. Zero, gumanizm insonning faqatgina o'ziga nisbatan ezgulik va yaxshilikning ravo ko'rilishi emas, balki u yashayotgan tabiiy va ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirishni ham qamrab oladi. Shunday qilib, uning ta'limotida tasavvuf falsafasining yangi mazmuni yaqqol namoyon bo'ladi. "Tariqat xonoqosida

¹Болтаев М.Н. Абу Али ибн Сина великий мыслитель, ученый энциклопедист средневекового Востока. Казань: «Мастер Лайн» 1999, -С. 305.

² Каримов И. Юксак маънавият — энгилмас куч. —Т.:Маънавият, 2008. —Б.47.

o'tirmagan, ya'ni rasman sufiy bo'lmagan Alisher Navoiy mazkur ta'limotni maslak, mafkuraviy e'tiqod sifatida qabul qilib, o'zining insonshunoslik, haqparastlik va adolatparastlik g'oyalariga bo'ysundirgan edi³”, deb yozadi bu xususda taniqli olim N.Komilov.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, har qanday tarixiy davrning ekologik ma'naviy-axloqiy merosini o'rganish, uning fan, texnika, texnologiya sohalari rivojlanish darajalarini baholash mezonini bo'lishi mumkin. Chunki, jamiyatning intellektual salohiyati, texnik-texnologik potensialining ekologiyalashish xususiyatlarini, “har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi³”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boltaev M.N. Abu Ali ibn Sina velikiy myslitel, uchenyy ensiklopedist srednevekovogo Vostoka. Kazan: «Master Layn» 1999, -S. 305.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008. –B.47.
3. Komilov N. Tasavvuf. K.1. – Toshkent: Yozuvchi, 1996. –B. 178. (272 b.)
4. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –B.29-30.
5. Xolmirzayev N.N. Key features and factors of modern urbanization. Ekonomika i sotsium, 2021- elibrary.ru №1-2, 652-653 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45593716>
6. NN Holmirzaev Eastern and western experience of labor culture <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=38564222>
7. Xolmirzaev N.N. Urbanizatsion taraqqiyot rivojida kimyo sanoati omili. Ekonomika i sotsium, 2021- elibrary.ru №11-2, 625-627 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=47780854>
8. Xolmirzayev N.N. Evolution of social activity and some aspects of its formation in young people. Ekonomika i sotsium, 2021- elibrary.ru №2-1, 395-396 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45679718>

³ Комилов Н. Тасаввуф. К.1. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. –Б. 178. (272 б.)